

## KOMPETENTLIK – TA’LIM BOSQICHLARINING MUHIM TAMOYILI

*Habibova Kumushoy Hamidovna*

*Buxoro davlat Pedagogika instituti*

*Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi*

*(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi II kurs magistranti*

*Elmuratova Shahodat Komil qizi*

*Qashqadaryo viloyati Muborak tumani*

*22-maktab o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi kompetentlik, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so‘zlar:** ta’lim, kompetentlik, kommunikativ kompetensiya, moslashuvchanlik, hamkorlik, muomala madaniyati, samaradorlik, natija.

Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida kitobxonlik, mutolaa madaniyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Bu asosan ona tili va adabiyoti darslarini o‘qitish jarayonida amalga oshirilishi diqqatga sazovor. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi 140-sonli ("Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida"gi Nizom), 6 apreldagi 187-sonli ("Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat Ta’lim Standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida"gi) qarorlarining mazmun-mohiyatida ham adabiyot fanini o‘rganish bosqichlari yorqin aks etgan. Ayniqsa, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida adabiyot fanini o‘qitishning asosiy maqsadi - o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o‘rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchilarning ma’naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat ekanligi yaqqol oydinlashadi. Binobarin, adabiyot fani chuqurlashtirilgan o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari badiiy asarni tahlil qilish kompetentsiyasida V1+ darajadagi bilimga ega bo‘lish uchun o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarining janr xususiyatlarini ajrata olishi, adabiyot va uning muayyan davri, janri haqida keng tushuncha, tasavvurlarini tushuntira olishi, asarlarga annotatsiya, taqriz hamda kichik xabar, lavhalar yoza bilishi ta’kidlangan. Darhaqiqat, insonning axloqiy fazilatlari SHarq allomalari adabiyotni tarbiya vositasi deb bilishgan. Axloqiy mavzudagi adabiyot - pandnomalardan tashqari, badiiy yuksak dostonlar, nasriy asarlarda ham “ma’viza”, ya’ni o‘git-nasihatlar xarakteridagi qismlar bo‘lganligi adabiyotning "adab" so‘zidan olinganligini asoslaydi. Inson odobi, ongi, ilmu amali tufayli barcha maxluqotlarning afzali, sharifi deb ta’riflanishi turkiy

adabiyotda Navoiy dahosi bilan boshlanadi. Chorakkam olti asrdirki, Alisher Navoiy xalq faxri, tilimizning bayroqdori, she'riyat mulking sulтони, madaniyat va ma'naviyatimizning porloq quyoshi bo'lib kelayotir. “Yoshlarimiz Navoiyni qanchalik chuqur va puxta bilsa, - deb yozadi I.Haqqul, - ma'rifat, ezgulik, komillik sirlarini o'shancha kengroq egallaydi. Navoiyning so'zlari diliga o'rinishgan odam, o'zi istasin-istamasin, odamiylik sharafi va kuch-quvvatini idrok etadi. ...Navoiyni etarli darajada bilish - adolat, diyonat va imon-e'tiqodning kuchiga ishonch demak”. Ta'bir joiz bo'lsa, bu haqiqat XV asrning so'nggi choragi va asosan, XVI asrdan anglana boshlangan va ulug' Navoiy asarlarini o'qish o'ziga xos an'anaga aylana borgan. Sharq xalqlari kitobxonligida fors-tojik tilida shohnomaxonlik, sa'diyxonlik, hofizxonlik, rumiyxonlik, jomiyxonlik bilan birga, turkiy (eski o'zbek) tilidagi yassaviyxonlik, qissaxonlik yonida navoiyxonlik ham qaror topgan.

Jahon adabiyoti xazinasining noyob durdonasi sanalmish "Kalila va Dimna" qadimgi hind fol'klori zaminida vujudga kelgan. Uni hind podshohi Dobshalim uchun faylasuf Beydabo yozganligi naql qilinadi. Jumladan, kitob muqaddimasidagi fikrlar e'tirofga loyiq: "Har bir xalqning olim va faylasuflari qanday vositalar bilan bo'lmasin, o'z orzu va istaklarini amalga oshirmoq, mavjud tartibni intizomga solmoq uchun hamisha fikr yuritganlar, har xil tadbirlar ila ish ko'rmoqchi bo'lganlar, bu haqda har xil asarlar yozmoqqa intilganlar.

Kitobning murakkabligi, mazmuni tushunarsiz bo'lgandagi e'tirofi ham o'rinli. Unda ta'kidlanishicha, yosh shogirdlar savodli bo'lmoq, ilm orttirmoq, naql aytmoq maqsadida bu kitobda yozilganlarni osonlik bilan yodlarida saqlab qoladilar. Katta bo'lib, aql va tajriba egasi bo'lganlarida, yodlab olgan va esda saqlab qolgan naqlar ustida fikr yuritib, ularni tushunganlarida dillari naqadar foydali hikmatlar bilan to'lganligini ko'radilar va o'zlari kutmagan ulkan boylikka, bitmas-tuganmas xazinaga ega bo'lganlarini biladilar. Yoshlarning xursandligi katta bo'lganda otasidan meros bo'lib qolgan xazinani topgan va shu tufayli umrining oxiriga qadar qiyinchilik ko'rmasdan yashay olishini bilgan odamning sevinchiga o'xshashligi ta'kidlangan.

Ijodkorlik - badiiy asar mutolaasi orqali o'quvchida avvalo ijodiy fikrlash rivojlanadi. Har bir asarni o'qib bo'lgach, o'z kechinmalarini she'r yoki esse shaklida ifoda etishga harakat qiladi. Yoxud o'zi o'qigan she'rlaridan ta'sirlanib, ilhomlanib ijodiy mashqlar bita boshlaydi. Bunda adabiyot darsligidagi savol va topshiriqlar ham turtki bo'lishi mumkin. Aytaylik, "Ruh bilan suhbat" (Saida Zunnunova) "dostoni nihoyasida "Sabr-toqat, matonat timsoli bo'lgan Ona haqida ijodiy matn tuzing", A.Oripovning "Sen bahorni sog'inmadingmi?" she'ri orqali "Oshiqlik va ma'shuqlik haqida o'zingizcha mulohaza yuriting. Bu timsollarga g'ubor yuqtirmagan holda fikrlaringizni pinhona qog'ozga tushiring. uni birovga ko'rsatish yoki o'qib berish shart emas", yoki, "O'zingiz she'r yozishga urinib ko'ring" kabi ijodiy topshiriqlarning berilishi har qanday kitobxon o'quvchini ijodiy tafakkurlashga undaydi.

Ilmiy-tadqiqotchilik - kitobxonlikning yana bir ko‘rinishi, asar muallifi, uning janri, badiiy xususiyatlari, obrazlari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishdir. Jumladan, o‘rta maxsus ta’lim tizimi adabiyot darslarida o‘quvchilar shunday imkoniyatga ega bo‘ladilar. Xususan, har bir mavzu, yozuvchi va shoirlar asarlaridan so‘ng ajratib ko‘rsatilgan misra, so‘z va iboralarni nazariy tahlil qilish, olgan bilimlari asosida munosabat bildirish, qo‘shimcha ma’lumotlar keltirishga harakat qiladilar. Chunki darslikda ham Navoiy dostonlari o‘qib bo‘lingach, "Navoiy - mening tasavvurimda" degan mavzuda taqriz-insho yozish topshirig‘i berilgan. Shuningdek, Ch.Aytmatov qissalari o‘rganilgach, taqriz-insho talab etiladi. Bilamizki, taqriz ham, insho ham ilmiy tadqiqotchilik salohiyatni kamol toptiradi. Asar o‘qish malakasi to‘liq shakllangan, uning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri ilg‘agan o‘quvchi albatta bu ko‘nikmaga ham ega bo‘ladi hatto muvaffaqiyatga erishadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Abdullayev M., Abdullayeva M., Abdullayeva F., Abdurazzoqova G. va boshq. *Mustaqillik: ilmiy-ommabop lug‘at*. T.:Sharq, 2006.
2. Abdullaeva Q., Safarova R., Bikboeva N. *Boshlang‘ich ta’lim kontseptsiyasi G‘G‘ Boshlang‘ich ta’lim, 6-son*. -T.: 1998.
3. Matchonov S.2020. *Adabiy ta’lim tizimini texnologiyalashtirish va badiiy estetik tafakkur muammolari*. Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy axborotlar.